

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**DAVLAT XARIDLARI SHAFFOFLIGINI TA’MINLASH VA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

Korporativ va budjet buyurtmachilarida davlat xaridi tizimini yanada takomillashtirish hamda korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, shuningdek, ularning joriy ishlab chiqarish faoliyati uzluksiz amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

1. 2021-yil 5-iyuldan shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) mazkur qarorga **1-ilovada** ko‘rsatilgan korporativ buyurtmachilar:

davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lonlar va davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborotni maxsus axborot portali hamda ommaviy axborot vositalarida joylashtiradi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, xaridga doir texnik topshiriqlar va tender hujjatlarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasiga kiritadi;

davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan kuzatuv kengashi majlisida ko‘rib chiqadi;

b) mazkur qarorga **1-ilovada** ko‘rsatilgan korporativ buyurtmachilar uchun individual tarzda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilangan davlat xaridlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki tender savdolarini o‘tkazmasdan amalga oshirishning mavjud tartiblari bekor qilinadi.

2. Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika komissiyasi) **2-ilovaga** muvofiq tarkibda tuzilsin.

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) Respublika komissiyasining ishchi organi etib belgilansin.

3. Respublika komissiyasi (A.N. Aripov) mazkur qarorga **1-ilovada** ko‘rsatilgan korporativ va budjet buyurtmachilarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyatini nazorat qilish doirasida:

bir oy muddatda qiymati 1 million AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan shartnomalarni, shu jumladan import shartnomalarini xatlovdan o‘tkazib, maqbullashtirish choralarini ko‘rsin. Bunda xatlov natijalariga ko‘ra, 30 foizdan kam bo‘lgan hajmda bajarilgan va (yoki) 30 foizdan kam miqdorda to‘lov amalga oshirilgan shartnomalar bo‘yicha xaridlar samaradorligini oshirish hamda ortiqcha xarajatlarni qisqartirishga alohida e‘tibor qaratilsin;

har oy yakuni bilan davlat buyurtmachilari rahbarlarining davlat xaridlari shaffoqligini ta’minlash va samaradorligini oshirish bo‘yicha hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin;

davlat xaridlarining ochiq va shaffof o‘tkazilishini, davlat buyurtmachilari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha respublika komissiyasi to‘g‘risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Bosh vazir o‘rinbosari D.A. Kuchkarov va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) mazkur qarorga **1-ilovada** ko‘rsatilgan korporativ buyurtmachilar bilan birgalikda ikki oy muddatda xalqaro konsalting va audit kompaniyalarini jalb qilgan holda:

xarid jarayonlarini auditdan o‘tkazish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarining samaradorligini oshirish (“forenzik”);

shartnomalar tuzish jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, narxlarni ekspertizadan o‘tkazish va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini ta’minlash;

mazkur qarorga **1-ilovada** ko‘rsatilgan korporativ buyurtmachilarda xaridlar transformatsiyasi ofislarini tashkil qilish choralarini ko‘rsin.

6. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.J. Ortiqov), Moliya vazirligi (O.R. Isakov) mazkur qarorga [1-ilovada](#) ko'rsatilgan korporativ buyurtmachilar bilan birgalikda ikki oy muddatda: Markaziy bank, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'ysin;

yetkazib beruvchilarning dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda qabul qilinishini ta'minlasin;

ombor va transport logistikasini boshqarish tizimidagi jarayonlarni avtomatlashtirish orqali "E-ombor" tovar-moddiy resurslar harakatini hisobga olish elektron tizimini joriy etsin.

7. Davlat soliq qo'mitasi (Sh.D. Qudbiyev) davlat buyurtmachilari bilan birgalikda: uch oy muddatda "E-ombor" tovar-moddiy resurslar harakatini hisobga olish elektron tizimining soliq organlari axborot tizimlariga integratsiya qilinishini ta'minlasin;

hisobvaraqa-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) identifikatsiyalash kodlari Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogiga muvofiq aks ettirilishini hamda barcha shartnomalar Yagona elektron shartnomalarning axborot portalida majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin.

8. Moliya vazirligi (O.R. Isakov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev) bilan birgalikda ikki oy muddatda xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda davlat buyurtmachilarining xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning kasbiy mahoratini hamda davlat xaridlari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha amaliy o'quv kurslarini tashkil etsin.

9. Davlat buyurtmachilari bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruv organlari rahbarlari zimmasiga davlat xaridlarini amalga oshirishda sohaga oid qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya etilishi, shuningdek, davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "Xo'jalik jamiyatlari va strategik ahamiyatga ega korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3487-son [qarori](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 2-iyul,  
PQ-5171-son